

## **O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA ONLINE USULIDA O'QITISH: AQSH INDIANA UNIVERSITETI MISOLIDA**

**Malik Hodjaev**

*Senior Lecturer in Uzbek AQSh, Indiana Universiteti Central Eurasian Studies  
Department Dunyo Mamlakatlarini O'rganish Instituti School of Global and  
International Studies Markaziy Yevro-Osiyo Fakulteti Indiana University, USA  
O'zbek Tili Katta O'qituvchisi*

### **AQSH-DA O'ZBEK TILI**

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, o'zbek tiliga, uning tarixi, madaniyati, qadimgi yodgorliklarini o'rganishga qiziquvchi xorijliklarning soni oshdi va oxirgi yillarda yanada oshib bormoqda.

AQSh mutaxassis va talabalari O'zbekistonni O'rta Osiyoning tarixiy markazi sifatida biladilar.

Aksariyat xorijlik talaba va mutaxassislar o'zbek tilini akademik yil davomida va intensiv ravishda qisqa muddatli kurslarda o'rganadilar. AQShning Indiana, Ohayo, Harvard, Michigan, Arizona, Vashington, Kolumbiya, Chikago, Ayova va boshqa bir necha universitet hamda til o'rgatish markazlarida o'zbek tili akademik yil davomida o'qitiladi. Shu bilan birgalikda Indiana, Arizona va Viskonsin universitetlarida yozgi o'zbek tilini intensiv o'rgatish kurslari tashkil etilib kelinmoqda.

Indiana universitetida 35 yildan buyon yozda va akademik yil davomida O'rta Osiyo tillarini o'rgatish kurslari tashkil etilib kelinmoqda. Shu bilan birgalikda Indiana universitetida 2003-yildan beri akademik yil davomida Ohayo, Michigan, Ayova, Chikago va boshqa (Big Ten)

Katta O'ntalik universitetlar talabalariga o'zbek tilini masofada o'qitish tashkil etilgan. Oxirgi 20 yil davomida esa Indiana universitetining talabalari akademik yilda o'zbek tilini to'rt (Introductory, Intermediate, Advanced, ADLS) bosqichda o'rganib, olgan bilimlarini ilmiy izlanish, tarjimonlik va boshqa sohalarda qo'llamoqdalar.

Universitetni bitirib, magistrlik va 2 doktorlik diplomlarini olgan yosh amerikaliklar AQSh Davlat Departamenti, O'zbekistondagi AQSh elchixonasi, Nodavlat tashkilotlar va boshqa turli sohalarda ishlamoqdalar.

O'zbek tilini xorijliklarga o'rgatishda ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rgatish ilg'or tajribasidan foydalaniladi. Ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rgatish metodikasi yuz yillar davomida rivojlanib kelgan va zamonaviy metodik qo'llanmalar, darsliklar, audio-video, multimedia o'quv qo'llanmalari va online o'qitish platformalari yaratilgan.

O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishni samarali tashkil etish uchun zamonaviy darsliklar, o'quv qo'llanmalar, lug'atlar va online platformalarni yaratish lozim. Ushbu sohada Indiana universitetining (CeICAR) O'rta Osiyo tillar markazida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu markazda o'zbek, uyg'ur, tojik va pushtu tillarini o'qitish bo'yicha "Introductory" va "Intermediate" bosqichlari uchun zamonaviy darslik, audio-video, multimedia qo'llanmalari va testlar yaratilgan. Ushbu ishlar xorijliklarning o'zbek tilini o'rganishga bo'lgan talablarini qondirish, o'zbek tili va madaniyatini amerikaliklarga tanitish imkoniyatlarini oshiradi.

Talabalarning kursda o'qishlari qimmat bo'lib, qaysi xorijiy tilni o'qishni tanlashlari ixtiyoriydir.

Ular talabchan, ko'plari bir necha xorijiy tillarni biladi. Ayrimlari O'zbekiston tarixi va madaniyatini o'qigan yoki O'zbekistonda bo'lgan. O'qituvchi o'zbek tili va adabiyoti, ingliz tili hamda zamonaviy o'qitish metodikasining bilimdoni bo'lishi bilan birga O'zbekiston tarixi, madaniyati, geografiyasi va davlat siyosatini ham yaxshi bilishi kerak.

Mavjud kirill alifbosidan lotin alifbosiga o'tish davrini hisobga olgan holda ikki alifbo o'qitiladi. Birinchi kurs (Introductory) davomida asosan lotin alifbosidan foydalaniladi. Amerikalik talabalar birinchi haftaning oxirida o'zbek tilida o'zlari haqida oddiy ma'lumotlarni kompyuterda yozishni o'rganadilar.

Ikkinchi (Intermediate), uchinchi (Advanced) va to'rtinchi (ADLS) kurslarida asosan kirill alifbosida yozilgan darslik, ilmiy kitoblar va adabiy asarlar, internet materiallari va o'zbekcha filmlardan foydalaniladi. Ushbu yuqori kurslarni bitirgan talabalar turli mavzularda erkin muloqot qila oladilar va yoza oladilar.

### AQSH-DA O'ZBEK TILINI ONLINE USULIDA O'QITISH 3

2016 yildan boshlab Indiana universitetining (CeICAR) O'rta Osiyo Tillari Markazida o'zbek va boshqa tillarni o'qitishning "online" platformasini yaratish va o'qituvchi-professorlarni malakasini oshirish bo'yicha loyihalar ustida ishlar boshlandi. 2017 yildan boshlab o'zbek tilini birinchi (Introductory) kursini online o'qitish amalga oshirildi va AQSh-ning Katta O'ntalik Universitetlaridan tashqari hamma shtatlardan xohlovchilarga o'zbek tilini ZOOM platformasida o'rganish imkoniyatlari yaratildi.

Kovid Pandemiyasi sababli "online" o'qitish sohasida misli ko'rilmagan darajada rivojlanish boshlandi. Indiana universitetida zudlik bilan "online" o'qitish bilan tanish bo'lmagan o'qituvchi professorlar uchun online malaka oshirish kurslari tashkil etildi va texnik yordam ko'rsatish tizimi yaratildi. Indiana universiteti moddiy texnik baza va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish bo'yicha AQSh-da yetakchi universitetlardan hisoblanadi. Indiana universitetida 72 ta xorijiy til o'qitiladi.

Xorijiy tilni online usulida o'rgatish boshqa fanlarni (matematika, tarix, adabiyot...) ona tilida o'rgatishdan farq qiladi va o'qituvchidan quyidagi ishlarni tashkil qilish talab qilinadi:

1. Online til o'rgatishning samarali dastur va rejasini tuzish
2. Kerakli texnik jihozlar va internet aloqa, texnik bilim va ko'nikmalar
3. Muloqot ko'nikmalarini hosil qilish mashqlarini tuzish
4. Talabalar bilimni tekshirish va plagiarizmni oldini olish
5. Mustaqil o'rganish uchun materiallar tayyorlash

Hozirgi vaqtda til o'rgatishning asinxron va sinxron usullari mavjud. To'liq asinxron usulida til o'rgatishni tashkil etish nihoyatda murakkab jarayon hisoblanadi. Shuni hisobga olib, Yevro Osiyo fakultetida hozirgi vaqtda o'zbek va boshqa xorijiy tillar "Gibrid" (Hybrid) usulida o'qitiladi. Misol uchun: birinchi (Introductory) kursida talabalar haftada 5 soat, 50 daqiqadan Kanvas (Canvas) va Zum (Zoom) platformasidan foydalanib dars o'qishadi. Talabalar haftada 3 soat sinxron darslarda Zum orqali o'qituvchi bilan birga o'rganadilar va qolgan 2 soat darslarda asinxron usulda Canvasda joylangan audio, video va boshqa o'quv materiallardan foydalanib, mustaqil o'rganadilar. Asinxron darslarning samaradorligi o'quv materiallarining sifatiga bog'liq.

Sinxron va asinxron darslardan tashqari hamma o'zbek tilini o'rganadigan talabalar haftada bir marta (50 daqiqa) suhbat darslariga qatnashadilar. Suhbat darslarida Zum platformasidan foydalanib, AQSh va O'zbekistonda yashayotgan jonli til vakillari bilan birgalikda o'tkaziladi.

Xorijiy tilni online o'qitganda, ananaviy sinfxonada erishiladigan natijaga erishish mumkinmi?- degan savol tug'ildi. Javob: Ha, mumkin, lekin ush bu natijaga erishish uchun nihoyatda ko'p mehnat va vaqt sarflash kerak. Shu bilan birga texnik resurslar, samarali darslik, audio, video, multimedia o'quv materiallarini yaratish kerak.

O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish – bu yangi rivojlanayotgan soha va ushbu sohada ingliz va boshqa xorijiy tillarni o'qitish tajribasidan foydalanib, ko'p ishlarni amalga oshirish kerak!

**Muallif haqida qo'shimcha ma'lumot**

**Malik Aliyevich Hodjaev 2002 yilda Indiana universitetiga o'zbek tili o'qituvchisi (Uzbek Language Lecturer) vazifasiga ishga qabul qilingan. Undan oldin Samarqand viloyat til markazining direktori va ingliz tili o'qituvchisi, Viloyat ingliz tili o'qituvchilari assosiasiyasi rahbari bo'lib ishlagan. Tanlovdan o'tishiga ingliz tilini o'qitish, til o'rgatishni samarali tashkil etish, zamonaviy til o'rgatish metodikasi va ta'lim texnologiyalarini joriy etish bo'yicha ko'p yillik tajribasi, Isroil, Avstriya, Buyuk Britaniya va AQSh-dagi bir necha universitetlarda malaka oshirish kurslariga qatnashganligi sabab bo'lgan. U o'zbek tilidan to'rt bosqichda saboq berish bilan birgalikda "O'zbek tilini xorijliklarga intensiv o'rgatish metodikasi "va" O'zbek tilini xorijiy til sifatida online usulida o'qitish" boyicha ilmiy izlanish olib bormoqda.**